FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOVA XURSHIDABONU ANVARJON QIZI

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.111’373.7+811.512.133’373.7

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Science

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Mamatkulova Xurshidabonu Anvarjon qizi
O‘zbek va ingliz tillarida antonim komponentli frazeologik birliklarning struktural-semantik tadqiqi 3

Mamatkulova Khurshidabonu Anvarjon kizi
Structural and Semantic Study of Phraseological Units with Antonymous Components in Uzbek and English..... 25

Маматкулова Хуршидабону Анваржон кизи
Структурно-семантическое исследование фразеологических единиц с антонимичными компонентами в узбекском и английском языках……..…47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ……51

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATKULOVA XURSHIDABONU ANVARJON QIZI

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Fil7797 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	**Umarova Nargizaxon Rustamovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Teshaboyeva Dilfuza Mo‘minovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy. Tel.: (873) 244-66-02; (873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy. Tel.: (873) 244-66-02; (873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@umail.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”_____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____”_____dagi _____- raqamli reyestr bayonnomasi)

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

A.I.Saminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, fil.f.f.d., dotsent

M.T.Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fil.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni struktur-semantik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tadqiq etish, ular tarkibidagi antonimik munosabatlarning obrazli ma’no shakllanishidagi o‘rnini aniqlash hamda turli tizimli tillardagi universal va milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha muayyan ilmiy va amaliy tajriba to‘plangan. Biroq antonim komponentli frazeologik birliklarda lug‘aviy va kontekstual qarama-qarshiliklarni farqlash, ularning struktur-grammatik va frazeosemantik xususiyatlarini izchil tasniflash hamda tillararo funksional ekvivalentlikni aniqlash mezonlarining yetarlicha tizimlashtirilmagani qiyosiy tadqiqotlarda ma’lum metodologik murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Shu bois antonim komponentli frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini tizimlashtirish, ularning tillararo muvofiqligini aniqlash va milliy-madaniy ma’nolarini izohlash asosida ikki tilli frazeologik lug‘atlarni takomillashtirish, tarjima jarayonida semantik aniqlikni ta’minlash hamda xorijiy tillarni o‘qitishda frazeologik kompetensiyani rivojlantirish alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida antonim komponentli frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari, oppozitsiyalarning semantik tasnifi, obrazli ma’no shakllanishi, lingvomadaniy xoslanishi hamda turli tizimli tillardagi universal va differensial belgilarini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari doirasida ushbu birliklarni shunchaki leksik qarama-qarshilik ifodasi sifatida emas, balki tarkibiy komponentlarning o‘zaro zidligi, grammatik tuzilishi va yaxlit frazeologik ma’nosi uyg‘unligida shakllanuvchi murakkab semantik hodisa sifatida talqin etish muhim nazariy masalalardandir. Shuningdek, lug‘aviy va kontekstual antonimiyaning frazeologik ma’no shakllanishidagi o‘rnini belgilash, struktur-grammatik modellar va frazeosemantik guruhlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda tillararo funksional ekvivalentlik qonuniyatlarining qiyosiy tahlili asosida izohlash zamonaviy frazeologiya va chog‘ishtirma tilshunoslikning nazariy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda milliy tilni boshqa tillarga chog‘ishtirish orqali uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish hamda o‘zbek tilini rivojlangan tillar qatoriga qo‘shish davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi. Shuning uchun “...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”ni[1] ado etishda bu sohadagi izlanishlarning amaliy natijalar berishi shubhasiz. Frazeologik birliklarni tadqiq etishda qiyosiy yondashuv turli lisoniy olam manzaralarini, xususan, ularning milliy tafakkurdagi aksini bilim bloklaridagi periferik qatlamlarga kiritish imkonini beradi, bu esa frazeologiyani alohida ilmiy yo‘nalish sifatida chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь // Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь. – № 258.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida S.Jones frazeologik antonimlarning umumiy xususiyatlari va funksional xoslanishiga e’tibor qaratgan[2] bo‘lsa, Sh.Balli, A.Smirnitskiy va N.Amosova frazeologiyani tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o‘rganib, ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tahlil qilgan[3]. Y.Polivanov va V.Vinogradov[4] rus tilidagi frazeologik birliklarni semantik jihatdan guruhlagan bo‘lsa, V.Teliya, A.Kovi, M.Merfi kabi olimlar[5] frazeologik birliklarni to‘plab, ularning semantik-pragmatik hamda lingvomadaniy jihatlarini tadqiq etganlar.

M.Beshay va N.Shanskiy frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, A.Dabrovska bu birliklarning sintaktik tomoniga e’tibor qaratgan. D.Kruz, F.Palmer va B.Altenberg frazeologizmlarning nutqiy vaziyatda qo‘llanishini, Y.Barilova oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklarni fransuz va rus tillari misolida tadqiq etgan. O.Lixacheva ingliz va rus tillaridagi antonimlarning struktur-semantik tahlilini amalga oshirgan, N.Tukeshova esa ingliz va qozoq tillarida antonim komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rgangan[6].

---

[2] Jones S. Antonymy: A Corpus-Based Perspective. – London: Taylor & Francis, 2004.

[3] Балли Ш. Французская стилистика / пер. с франц. К.А. Долинина. – М.: Эдиториал УРСС, 2001; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1998. – 260 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 227 с.

[4] Поливанов Е.Д. Труды по восточному и общему языкознанию. – М.: Наука, 1991. – 623 с.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140-161.

[5] Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 258 p.; Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy, and Other Paradigms. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2003.

[6] Beshaj M.L. Phraseological Units used in the Functional Styles in English and Albanian Language // Mediterranean Journal of Social Sciences. – Rome: MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome, 2013. – Vol. 4, № 2. – P. 453-456; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – 3-е изд. – М.: Высшая школа, 1985. – 160 с.; Dabrowska A. A Syntactic Study of Idioms. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2018; Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1986; Palmer F.R. Semantics. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981; Altenberg B. On the

O‘zbek tilshunosligida uzoq yillar davomida frazeologik birliklar doirasida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Ushbu sohada Sh.Rahmatullayev[7], B.Yo‘ldoshev[8], A.Mamatov[9] va boshqa tilshunoslarning xizmatlari katta. Professor Sh.Rahmatullayev tomonidan frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, shakl va ma’no munosabatlari atroflicha o‘rganilgan, ko‘plab monografiyalar hamda o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug‘ati yaratilgan. B.Yo‘ldoshev frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari, A.Mamatov esa iboralarning shakllanishi doirasidagi ilmiy ishlari bilan o‘zbek frazeologiyasining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Frazeologiya sohasida M.Umarxodjayev, H.Berdiyorov, M.Vafoyeva, Sh.Sultonova, Sh.Ganiyeva[10], turli tizimli tillar qiyosiy frazeologiyasi doirasida A.Nasirov, L.Xolmuradova, G.Adashulloyeva, N.Nasrullayeva, G.Umarjonova, F.Mamatova, O‘.Xudoynazarova[11] kabi tadqiqotchilarning ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Biroq o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim komponentli frazeologik birliklar hozirgacha struktur-semantik jihatdan qiyosiy tadqiqot obyekti o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

---

phraseology of spoken English: The evidence of recurrent word-combinations // Phraseology: Theory, Analysis, and Applications / ed. A.P. Cowie. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 101-121; Барилова Е.Э. “Еда” как фрагмент русской и французской языковой картины мира // Вестник Псковского государственного педагогического университета. Серия: Социально-гуманитарные и психолого-педагогические науки. – Псков, 2011. – Вып. 13; Лихачева О.Н. Сопоставительно-типологический структурно-семантический анализ антонимов в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01, 10.02.20. – Майкоп, 2006; Тукешова Н.М. Фразеологические единицы с антонимичными компонентами в английском и казахском языках: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Казань, 2022.

[7] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

[8] Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013.

[9] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

[10] Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1972; Бердиёров Ҳ. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. 3-қисм. – Самарқанд: СамДУ, 1976; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспектлар: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 176 б.; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017.

[11] Насиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016; Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017; Адашуллоева Г. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018; Насруллаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Самарқанд, 2018; Umarjonova G.M. Nemis va o‘zbek tillarida “Hand” – “qo‘l” komponentli frazeologik birliklarning chog‘ishtirma tahlili: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Andijon, 2022; Маматова Ф.М. Инглиз ва ўзбек фразеологизмларида оилавий анъана ва муносабатларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Худойназарова Ў. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Термиз, 2022.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz tillari frazeologik tizimidagi antonim tarkibli birliklarning lug‘aviy ko‘lamini aniqlash hamda tadqiqot materiallarini jamlash;

ingliz hamda o‘zbek tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklarning (keyingi o‘rinlarda – FB) struktur hamda semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish;

FBlarning semantik xususiyatlari asosida frazeosemantik guruhlarini aniqlash va ular orqali ingliz hamda o‘zbek tillariga xos differensial belgilarni ochib berish;

qiyoslanayotgan tillarda antonim tarkibli FBlarning tillararo munosabat turlarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklarning struktur-semantik va grammatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, statistik, komponent tahlil, kontekstual, kategorial va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillariga oid frazeologik lug‘atlar asosida antonim tarkibli frazeologik birliklarning tizimli tahlili amalga oshirilgan, ularning struktur-semantik xususiyatlari hamda bu birliklar orasidagi funksional ekvivalentlikni ta’minlovchi lingvomadaniy omillar aniqlangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklarning struktur hamda grammatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida ushbu birliklarning ot, sifat, fe’l va ravishlarga asoslanishi aniqlanib, har bir turga xos morfosintaktik tuzilma hamda semantik funksiyalarni qamrab olgan umumiy modellarning mavjudligi dalillangan;

antonim tarkibli frazeologik birliklarning semantik tahlili natijasida ular to‘rt asosiy frazeosemantik guruhga – shaxsni tavsiflovchi, jonli va jonsiz tabiat hodisalarini bildiruvchi, aniq va mavhum tushunchalarni hamda qo‘shimcha xususiyatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarga ajratilgan va har bir guruh doirasida milliy tafakkurga xos konseptual belgilar namoyon bo‘lishi isbotlangan;

qiyosiy tahlil jarayonida ingliz tilida 257 ta, o‘zbek tilida esa 134 ta antonim tarkibli frazeologik birlik aniqlanib, har ikki tilda ham eng ko‘p birliklar fe’l tarkibli, eng ozi birikma va modal tarkibli ekanligi, frazeosemantik jihatdan esa inson shaxsini tavsiflovchi birliklarning ustuvorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

antonim tarkibli FBlarning tadqiqi orqali turli tizimli tillar milliy olam manzarasiga xos o‘xshash va farqli jihatlar haqida muayyan xulosalarga kelingan;

o‘zbek va ingliz tillarida antonim tarkibli frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi zid ma’noviy munosabatlar madaniy-lisoniy jihatdan farqlangan, tavsiflangan va dalillangan;

tadqiqot natijalari antonim tarkibli FBlarning lisoniy talqinini anglashga, ayniqsa, mutolaa va tarjima jarayonlarida matn mazmunini to‘g‘ri tushunishga yordam berishi asoslangan;

lingvokulturologiya, psixolingvistika, leksikologiya, lingvopragmatika, chog‘ishtirma lingvistika, nazariy grammatika, lingvokognitologiya fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish hamda nazariy va amaliy kurslarni takomillashtirish uchun xizmat qiluvchi antonim tarkibli frazeologik birliklarga oid materiallar to‘plangan va tizimli tahlilga tortilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keltirilgan ilmiy ma’lumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘plangan materiallar va olingan natijalardan kognitologiya, lingvokulturologiya, semantika, tarjimashunoslik, leksikologiya, frazeologiya kabi fanlar doirasida ilmiy adabiyotlar yaratishda hamda kelgusida ingliz va o‘zbek tillari frazeologik olam manzarasiga oid kognitologik, tarixiy-etimologik, milliy-madaniy, baholovchi-aksiologik tadqiqotlar olib borishda, monografiyalar yaratishda, o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu dissertatsiya natijalaridan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Zamonaviy leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Matn lingvistikasi”, “Roman-german filologiyasiga kirish” kabi fanlarni o‘qitishda, seminar va maxsus kurslar tashkil etishda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida antonim komponentli frazeologizmlarni struktur-semantik jihatdan o‘rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va ingliz tillariga oid frazeologik lug‘atlar asosida antonim tarkibli frazeologik birliklarning tizimli tahlili, ularning semantik-strukturaviy xususiyatlari hamda ular orasidagi funksional ekvivalentlikni ta’minlaydigan lingvomadaniy omillar borasidagi ilmiy xulosalardan 2023-2025-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining F3-202003161-raqamli “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2026-yil 14-apreldagi 1/04-23-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida raqs va liboslarga oid atamalarning tarjima ekvivalentlarini tanlashda antonim tarkibli frazeologik birliklar tahlilida qo‘llanilgan semantik-strukturaviy tasniflash metodikasidan foydalanilgan, bu esa ko‘p tilli lug‘at materiallarining nazariy jihatdan izchilligini ta’minlashga xizmat qilgan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi antonim tarkibli frazeologik birliklarning ot, sifat, fe’l va ravishlarga asoslanishi, har bir turga xos morfosintaktik tuzilma hamda semantik funksiyalarni qamrab olgan umumiy modellarning mavjudligi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalardan ALM-202304076-05-raqamli “Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 28-apreldagi 04/4592-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur umumiy modellar asosida shakllantirilgan frazeologik-antonimik test topshiriqlari bloki nutqiy-kognitiv jarayonlarni so‘z turkumlari kesimida differensiallashtirilgan holda tashxislash imkonini bergan;

antonim tarkibli frazeologik birliklarning to‘rt asosiy frazeosemantik guruhga – shaxsni tavsiflovchi, jonli va jonsiz tabiat hodisalarini bildiruvchi, aniq va mavhum tushunchalarni hamda qo‘shimcha xususiyatlarni ifodalovchi birliklarga ajratilishi va har bir guruh doirasida milliy tafakkurga xos konseptual belgilar namoyon bo‘lishi yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalardan Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2024-2025-yillarda efirga uzatilgan “Yoshlar vaqti”, “Xayrli kun!”, “Ona tilim” ko‘rsatuvlari hamda “Ma’naviyat – qalb ko‘zgusi”, “Yoshlar kundaligi” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2026-yil 6-maydagi 01-12/88-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuv va eshittirishlarning mazmuni boyitilgan, ilmiy va amaliy salmog‘i ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan 4 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek va ingliz tillarida antonim tarkibli frazeologik birliklarni o‘rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Leksik antonimlar va ularni aniqlash mezonlari”* deb nomlanib, unda antonimiya hodisasining o‘rganilish tarixi,

antonimlarni aniqlash va chegaralash mezonlari hamda bu boradagi asosiy nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Qarama-qarshilik inson tafakkurining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, til tizimida u antonimlar vositasida ifodalanadi. Jahon tilshunosligida J.Layons, D.Kruz, S.Jons, M.L.Merfi, F.R.Palmer, L.A.Novikov, O.N.Lixacheva kabi olimlarning ishlari antonimiya nazariyasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilshunosligida antonimiya haqidagi dastlabki qarashlar S.Mutallibov va S.Usmonov maqolalari[12]da bayon etilgan bo‘lsa, keyinchalik bu hodisa R.Shukurov va B.Isabekovning nomzodlik dissertatsiyalarida monografik planda yoritilgan[13].

Tilshunoslikda antonimiyaga nisbatan tor va keng yondashuv mavjud. Tor talqin tarafdorlari, xususan, J.Layons antonimlar qatoriga faqat darajali (gradatsion) qarama-qarshiliklarni kiritadi (big – small, katta – kichik; high – low, baland – past), chunki aynan ular qutblilik xususiyatini yaqqol namoyon etadi[14]. S.Jons esa til egalari tomonidan intuitiv ravishda qarama-qarshi deb idrok etiladigan har qanday birliklarni antonim sifatida qarashni taklif etadi va ularni komplementar hamda gradatsion turlarga ajratadi[15]. L.A.Novikov fikricha, antonimiyaning asosini bir mohiyat doirasidagi farqlanishning keskin qutblari tashkil etadi, barcha antonimlarni birlashtiruvchi umumiy belgi esa juftlikning bir a’zosi mazmunida ikkinchisiga nisbatan chegaraviy inkorning ifodalanishidir[16]. Tadqiqot ishimizda keng yondashuv asos qilib olingan, ya’ni gradatsion qarama-qarshiliklar bilan bir qatorda komplementar, vektorli va konversiv zidliklar ham antonimiya doirasida o‘rganilgan.

Antonimlarni aniqlash mezonlari masalasida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, *opa-singil, aka-uka* kabi juftliklarni B.Isabekov antonim emas, balki korrelyativ birliklar sifatida baholaydi, chunki ular mazmunan o‘zaro zid emas, aksincha, bir-biriga yaqin va bog‘liqdir. Fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini Sh.Rahmatullayev antonim deb hisoblamaydi: olimning fikricha, ular ikki leksema emas, balki bitta leksemaning ikki shakli bo‘lib, antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma’no munosabatidir[17]. Dissertatsiyada bunday birliklarni antonimlar qatoriga kiritishda ular o‘rtasidagi semantik oppozitsiyaning darajasi, kontekstual qarama-qarshilikning mavjudligi va tizimli paradigmatik bog‘liqlik inobatga olinishi lozimligi asoslangan.

Faslda antonimiya va antiteza munosabatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Antonimiya til birliklarining ma’noviy qarama-qarshiligi bo‘lsa, antiteza esa shu munosabatga asoslangan, nutqning ta’sirchanligini kuchaytiruvchi uslubiy vositadir. O.S.Axmanova antitezani “mos keluvchi so‘zlarning antonimlashuvi

---

[12] Муталлибов С. Антоним сўзлар // Совет мактаби, 1955. – № 4. – Б. 28-30; Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958. – № 2. – Б. 33-40.

[13] Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1973; Исабеков Б. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1973.

[14] Lyons J. Semantics. Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 271.

[15] Jones S. Antonymy: A Corpus-Based Perspective. – London: Taylor & Francis, 2004. – P. 12-15.

[16] Новиков Л.А. Семантика русского языка: учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1982. – С. 243-246.

[17] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 10.

asosida yaratilgan nutqiy figura” sifatida ta’riflaydi[18]. Shu bois antonim tarkibli FBlarni o‘rganishda antonimiyaning til tizimidagi tabiati bilan bir qatorda uning nutqdagi uslubiy voqelanishi ham hisobga olinadi.

Bobning ikkinchi fasli *“Frazeologik antonimlar. Antonim tarkibli frazeologik birliklarni hosil qilish usullari”* deb nomlanadi. Faslda A.V.Kunin, E.N.Miller, N.F.Alefirenko, N.S.Skvorsova, G.M.Polkina, Sh.Rahmatullayev, R.Shukurov kabi olimlarning frazeologik antonimiyaga oid qarashlari tahlil qilingan. A.V.Kunin frazeologik birliklar o‘rtasidagi ziddiyatni belgilashda “antonim differensiator” tushunchasidan foydalanadi[19]. E.N.Millerning fikricha, frazeologizmlardagi antonimlik ularning umumiy semantik mazmunidagi qarama-qarshilik orqali namoyon bo‘ladi, uni aniqlashning asosiy usuli esa semantik tahlildir. Olim FB tarkibida leksik antonimlarning mavjudligi uni o‘z-o‘zidan frazeologik antonimga aylantirmasligini ham ta’kidlaydi[20]. N.F.Alefirenko frazeologik antonimiya ma’no farqlantiruvchi belgilarning tubdan tafovutiga, ya’ni to‘liq semantik qarama-qarshilikka asoslanishini qayd etadi[21].

R.Shukurov “frazeologik birikma – frazeologik birikma” modelidagi antonimlarni komponentlar tafovutiga ko‘ra uch guruhga ajratadi: barcha komponentlari farqlanuvchi (ko‘kka ko‘tarmoq – yerga urmoq), faqat bitta komponenti farqlanuvchi (ko‘zini ochmoq – ko‘zini yummoq) hamda komponentlari bir xil bo‘lib, kontekst asosida zid ma’no kasb etuvchi birliklar[22]. Dissertatsiyada o‘zbek tilidagi frazeologik antonimlarni aniqlashning to‘rt mezoni taklif etilgan: 1) *semantik qarama-qarshilik* – iboralarning umumiy ma’nosida ziddiyatning mavjudligi (tili shirin – tili zahar); 2) *kontekstda qarama-qarshi qo‘yilish* – juftliklarning bir gap yoki matnda oppozitsiyaga kirishuvi; 3) *struktura va komponentlar o‘rtasidagi moslik* – juftliklarning bir xil model asosida qurilishi (ko‘ngli oq – ko‘ngli qora: [ot (ega) + sifat (kesim)] modeli); 4) *qo‘llanish chastotasi* – juftliklarning O‘zbek tili milliy korpusidagi (uzcorpora.uz) real nutqiy faolligi (ko‘ngli ko‘tarildi – ko‘ngli cho‘kdi).

N.S.Skvorsova frazeologik birliklar o‘rtasidagi antonimlikni aniqlashda ikki asosiy mezonni qayd etadi: qarama-qarshilikning alohida komponentlar o‘rtasida emas, balki butun ibora mazmuni darajasida mavjud bo‘lishi hamda juftlik a’zolarining bitta tarkibiy ma’no turi va bitta semantik-grammatik sinfga mansubligi[23]. Sh.Rahmatullayev ham frazeologik antonimiya bevosita komponentlarning zidligiga emas, balki iboralarning umumiy semantik mazmuniga asoslanishini ta’kidlaydi[24]. Shu bois polisemantik iboralarda har bir ma’no alohida baholanadi: masalan, savol bermoq iborasining faqat bitta ma’nosi javob

[18] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 5-е изд. – М.: Либроком, 2009. – С. 49.

[19] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – С. 69.

[20] Миллер Е.Н. Антонимия в лексике и фразеологии (на материале немецкого и русского языков). – Алма-Ата: [б. и.], 1978. – С. 67-70.

[21] Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремиология. – М.: Флинта: Наука, 2009. – С. 74.

[22] Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 33.

[23] Скворцова Н.С. Антонимические отношения в английской фразеологии (на материале концептов “success” – “failure”): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – М., 2019. – С. 33.

[24] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 7-8.

qaytarmoq iborasiga zidlanadi, qolgan ma’nolari esa bunday munosabatga kirishmaydi.

Frazeologik antonimlar ikki FBning qarama-qarshi qo‘yilishi asosida shakllanadi: *pretty as a picture – ugly as sin* (nihoyatda chiroyli – nihoyatda xunuk), heavy as lead – light as a feather; oq niyat – qora niyat, og‘zi ochiq – mum tishlamoq. Tadqiqot obyekti bo‘lgan antonim tarkibli FBlarda esa qarama-qarshilik bitta birlik doirasida, uning tarkibiy komponentlari o‘rtasida yuzaga chiqadi. G.M.Polkina bunday birliklarni tarixan shakllangan, ma’no jihatdan yaxlit va obrazli, tarkibida antonim komponentlar mavjud bo‘lgan barqaror birikmalar yoki gaplar sifatida ta’riflaydi[25]. Shu asosda dissertatsiyada antonim tarkibli FB deganda tarkiban mustaqil tuzilgan, komponentlari semantik jihatdan qisman yoki to‘liq qayta talqin etilgan, barqaror va yaxlit ma’noga ega hamda bir birlik doirasida semantik jihatdan zid leksik komponentlarni o‘z ichiga olgan frazeologik birlik tushuniladi. Masalan, *from the cradle to the grave* (beshikdan to qabrgacha, ya’ni “butun umr davomida”); *ups and downs* (hayotdagi yaxshi va yomon kunlarning almashinuvi); *to know something backwards and forwards* (biror narsani puxta, har tomonlama bilmoq).

Bobning uchinchi fasli *“Frazeologik birliklar tarkibidagi leksik antonimlarning turlari”* deb nomlanadi. Unda J.Layons, D.Kruz, U.Kroft, M.Merfi, F.Palmer, N.Trubetskoy, L.A.Novikov, V.Levitskiy, R.Shukurov tasniflariga tayangan holda FBlar tarkibidagi qarama-qarshilikning to‘rt turi – komplementar, kontrar (gradatsion), konversiv va vektorli antonimlar tahlil qilingan.

Komplementar antonimlar orasida oraliq holat bo‘lmaydi: birining tasdiqlanishi ikkinchisining inkorini anglatadi va aksincha[26]. Bunday komponentlar ingliz *tilida more dead than alive* (“tirikdan ko‘ra o‘likroq”) – o‘ta holdan toygan, *off and on* – vaqti-vaqti bilan, o‘zbek tilida *so‘zi bor, amali yo‘q, lov etib yonib, pis etib o‘chmoq* kabi birliklarda uchraydi: ...*Axir, bu lov etib yonib, pis etib o‘chadigan bir narsa-ku* (A.Muxtor. Opa-singillar, 23-b.). Bu misoldagi *yonmoq-o‘chmoq* juftligida hodisaning qanchalik tez boshlanib, shunchalik tez barham topishi obrazli ifodalangan.

Kontrar (gradatsion) antonimlar orasida oraliq zona mavjud bo‘lib, ular belgining turli darajasini ifodalaydi: ingliz tilida – *through thick and thin* (so‘zma-so‘z: “qalin va yupqa orqali”) – har qanday sharoitda, sodiqlik bilan; *to search high and low* – hamma yerdan qidirmoq; *young and old* – katta-yu kichik; o‘zbek tilida *issiq-sovuqni ko‘rgan – hayot tajribasiga ega; keng dunyo tor bo‘ldi – umidsizlikka tushmoq* kabi.

Konversiv antonimlar ikki tomonlama, o‘zaro bog‘liq munosabatlarni ifodalaydi; F.R.Palmer ularni “nisbiy qarama-qarshiliklar” (relational opposites) deb ataydi[27]. Ingliz tilida: *give or take* – taxminan, kam-ko‘st bilan; *give-and-take*

[25] Полькина Г.М. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с антонимичными компонентами в английском и татарском языках: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Казань, 2002. – С. 52.

[26] Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1986. – P. 199.

[27] Palmer F.R. Semantics. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – P. 136.

– o‘zaro yon berish; o‘zbek tilida: kattani aka, kichikni uka demoq – bir-birini hurmat qilmoq.

Vektorli antonimlar harakat yoki belgining qarama-qarshi yo‘nalishini bildiradi: *here and there* – u yer-bu yerda; *up hill and down dale* – tog‘u vodiylar osha, hamma yerda; *go for wool and come home shorn* – foyda ko‘zlab borib, zarar ko‘rib qaytmoq; birda u yerda, birda bu yerda – tartibsiz, betayin yurmoq. Tadqiqotda yo‘nalishli va reversiv qarama-qarshiliklar alohida kichik guruhlarga bo‘linmasdan, vektorli antonimlar tarkibida birlashtirilgan.

D.A.Kruz gradatsion antonimlarni polyar (hot – cold), qisman mos tushuvchi (overlapping) va ekvivalent turlarga ajratib, qisman mos tushuvchilar ichida privativ antonimlarni ham farqlaydi: ularda juftlikning bir a’zosi biror belgining mavjudligini, ikkinchisi esa uning yo‘qligini bildiradi (armed – unarmed)[28]. Yo‘nalishli qarama-qarshiliklarni esa olim yo‘nalishlar (up – down, north – south), antipodlar (peak – foot), qarama-qarshi tomonlar (hill – valley) va reversivlar (enter – exit) kabi kichik turlarga bo‘ladi[29]. Dissertatsiyada mazkur tasniflar FB materialiga tatbiq etilib, ularning frazeologik ma’no shakllanishidagi o‘rni aniqlangan: gradatsion komponentlar ko‘proq belgining darajasini mubolag‘ali ifodalashga, komplementar komponentlar esa yaxlitlik, to‘liqlik ma’nosini hosil qilishga xizmat qiladi.

Qarama-qarshilik turlarining qiyoslanayotgan tillardagi miqdoriy taqsimoti quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Antonim tarkibli FBlar tarkibidagi qarama-qarshilik turlarining miqdoriy taqsimoti

Qarama-qarshilik turi	**Ingliz tili (soni)**	**%**	**O‘zbek tili (soni)**	**%**
Kontrar (gradatsion)	102	39,69	46	34,33
Komplementar	73	28,40	42	31,34
Vektorli	70	27,24	32	23,88
Konversiv	12	4,67	14	10,45
Jami	**257**	**100**	**134**	**100**

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki tilda ham kontrar va komplementar oppozitsiyalar yetakchi o‘rinni egallaydi: ingliz tilida ular birgalikda materialning 68,09 foizini, o‘zbek tilida esa 65,67 foizini tashkil etadi. Konversiv oppozitsiyalarning ikki tilda ham eng kam uchrashi FB tabiatida subyekt va obyekt rollarini qarama-qarshi qo‘yish imkoniyatlarining leksik sathga nisbatan cheklanganligi bilan izohlanadi. FBlar tarkibidagi antonim komponentlar lug‘aviy yoki kontekstual antonimlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: kontekstual antonimlar ingliz tilida 107 ta, o‘zbek tilida esa 73 ta FB tarkibida aniqlangan.

Bobning to‘rtinchi fasli *“Frazeologik birliklar tarkibidagi antonimlarning stilistik xususiyatlari”* deb nomlanib, unda antonim komponentlarning asosiy uslubiy vazifalari – antiteza va oksyumoron hosil qilish xususiyatlari yoritilgan. G.Qaliyev antonimlarning bir gap doirasida bevosita taqqoslanishi, yondosh

[28] Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1986. – P. 204-208.
[29] Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1986. – P. 223.

gaplarda moslashtirilgan holda qo‘llanishi, navbatma-navbat keltirilishi hamda FBlarning matnda teskari ma’no ifodalashi kabi to‘rt usulini ajratadi[30]. V.P.Moskvin esa antonimlarning stilistik vazifasi sifatida antiteza va oksyumoron yaratishni ko‘rsatadi[31].

Antiteza qarama-qarshi tushunchalarni ochiq qarshilantirish orqali ifodaning ta’sirchanligi va obrazliligini oshiradi. Ingliz tilida: *move heaven and earth* – bor kuchini ishga solmoq; *to blow hot and cold* – goh u, goh bu fikrga o‘tmoq, ikkilanmoq; o‘zbek tilida: yer bilan osmoncha (juda katta farq); issiq-sovuqni ko‘rgan (hayotning turli holatlarini boshdan kechirgan). *Oksyumoron* esa mantiqan nomuvofiq belgilarni bitta obrazda birlashtiradi. Dissertatsiyada oksyumoronning umumiy semantik paradoksga asoslangan ko‘rinishlari (tirik murda, ziqna boy) bilan bevosita antonim komponentlar ishtirok etgan frazeologik oksyumoronlar farqlangan. Masalan, ingliz tilidagi *a living death birligida life – death, poor little rich girl birligida poor – rich* iboralarida; o‘zbek tilidagi *tirik murda* birligida esa “tirik – o‘lik” qutbiy oppozitsiyasi bevosita ifodalangan: *Sir Orfeo, in the Middle English verse romance, went into the forest “to lead a living death” and entered hell*[32] (Sir Orfeo o‘rmonga “tirik o‘likdek yashash” uchun kirib ketadi). Antonim komponentli oksyumoronlar ingliz tilida 6 ta, o‘zbek tilida esa 1 ta holatda aniqlangan bo‘lib, bu ularning antiteza turidagi birliklarga nisbatan ancha kam uchrashini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida antonim komponentli FBlar ko‘pincha maqol va hikmatli so‘zlarga yaqin turadi hamda nasihat, ogohlantirish mazmunini ta’sirchan ifodalaydi: *Menga uyat o‘limdan ortiqdir. Bundan buyon bunday so‘zlarni oraga solmang, achchiq o‘yin shirin hayotni buzadi* (H.H.Niyoziy. Maysaraning ishlari). Bu misolda *achchiq-shirin* antonim juftligi qo‘pol hazilning oqibatini keskin qarshilantirish orqali fikrni kuchaytirgan. Ingliz tilida esa antiteza ko‘proq juft bog‘lovchili qoliplarda (ups and downs, give and take, sink or swim) namoyon bo‘lib, ixcham va ritmik ifoda hosil qiladi. Shu tariqa antonim komponentlar har ikki tilda obrazlilik, ekspressivlik va baholovchilikni kuchaytiruvchi asosiy uslubiy vosita sifatida faol ishtirok etadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek va ingliz tillarida antonim tarkibli frazeologizmlarning struktur-grammatik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi besh fasldan iborat. A.V.Kunin yondashuviga tayangan holda antonim tarkibli FBlar ot, sifat, ravish, fe’l hamda birikma va modal frazeologik birliklarga ajratilib, har bir guruhning sintaktik bog‘lanish turlari, komponentlar soni, variantliligi va gapdagi vazifasi qiyosiy tahlil qilingan.

Bobning birinchi fasli *“Ot-antonimlar ishtirokidagi FBlar”* deb nomlanadi. Substantiv FBlar predmet yoki substantivlashgan harakatni ifodalab, gapda “kim?”, “nima?” so‘roqlariga javob beradi. Ingliz tilida bunday birliklar 81 ta bo‘lib, fe’l tarkibli FBlardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi; o‘zbek tilida esa 17 ta substantiv FB aniqlangan. Ingliz tilidagi boshqaruvli substantiv FBlarda *of, in,*

[30] Калиев Г., Болганбаев О. Современная лексикология и фразеология казахского языка: учебник. – 3-е изд., доп. – Алматы: Сөздік-Словарь, 2006. – С. 120.

[31] Москвин В.П. Теоретические основы стилистики. – 3-е изд., стер. – М.: Флинта: Наука, 2018. – С. 150.

[32] Mikami H. Frank McGuinness and His Theatre of Paradox. – Gerrards Cross: Colin Smythe, 2002. – P. 105.

before, after, among predloglari qo‘llanadi: *the beginning of the end* – oxirning boshlanishi; *a matter of life and death* – hayot-mamot masalasi; *a wolf in sheep’s clothing* – qo‘y terisini yopingan bo‘ri; *calm before the storm* – bo‘ron oldidagi sukunat; *a sheep among wolves* – bo‘rilar orasidagi qo‘y. Bitishuvli birliklar asosan *and*, kamroq *or* bog‘lovchisi yordamida hosil bo‘ladi: *ups and downs, ebb and flow, bouquets and brickbats* (so‘zma-so‘z: “guldastalar va g‘ishtlar”) – maqtov va tanqid, *heads or tails* – tanganing gerbi yoki raqami. O‘zbek tilida komponentlar *-u, -yu* yuklamasi va *bilan* ko‘makchisi (ko‘zining oq-u qorasi, oq bilan qora), ayrim hollarda esa *yoki* bog‘lovchisi (hayot yoki o‘lim masalasi) vositasida bog‘lanadi.

Komponentlar soniga ko‘ra ingliz tilida ikki komponentli (likes and dislikes, cash or credit), uch komponentli (a cat-and-dog existence – it-mushukdek hayot; give-and-take policy – o‘zaro yon berish siyosati) va ko‘p komponentli (bone of one’s bone and flesh of one’s flesh – qondosh, eng yaqin kishi; cross questions and crooked answers) birliklar farqlanadi; o‘zbek tilida esa bunday tasnif uchun yetarli material kuzatilmaydi. Ingliz tilidagi substantiv FBlarda variantlilik keng tarqalgan: leksik (the calm before the storm – the lull before the storm), struktur-grammatik (a matter of life and death – a life-and-death matter; a game of cat and mouse – a cat-and-mouse game) variantlar shular jumlasidandir. O‘zbek tilidagi substantiv Fblar doirasida variantlar aniqlanmadi, buni ularning shaklan barqarorligi bilan izohlash mumkin bo‘ladi.

Substantiv FBlar gapda turli sintaktik vazifalarni bajaradi. Ingliz tilida ular ko‘proq to‘ldiruvchi vazifasida keladi: *We discussed the pros and cons of the new policy before making a decision* (Biz qaror qabul qilishdan oldin yangi siyosatning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qildik). O‘zbek tilida esa to‘ldiruvchi va kesim vazifalarida qo‘llanishi kuzatiladi: *Omma o‘sdi, oq-u qorani biladigan bo‘lib qolishdi* (Oybek. Nur qidirib); *Jamila xolani tashvish bosdi. Bitta-yu bitta ko‘zining oq-u qorasi* (S.Anorboyev. Pushaymon). Ikkinchi misolda *ko‘zining oq-u qorasi* birligi “eng aziz, yagona farzand” ma’nosida kesim vazifasini bajargan.

Bobning ikkinchi fasli *“Sifat-antonimlar ishtirokidagi FBlar”* deb nomlanadi. Sifat asosli FBlar tarkibida yadro komponent sifatida sifat ishtirok etadigan va vazifasi jihatidan sifat so‘z turkumiga mos keladigan barqaror birikmalardir[33]. Bunday birliklar ingliz tilida 19 ta, o‘zbek tilida 11 ta bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra qiyosiy (komparativ) va qiyosiy bo‘lmagan (nokomparativ) turlarga bo‘linadi. Ingliz tilidagi qiyosiy birliklar “as ... as” qolipida shakllanadi, bunda birinchi as tushib qolishi mumkin, ikkinchisi esa doimo saqlanadi[34]: *as different as night and day* – tun bilan kundek farqli, mutlaqo boshqacha: *But now we are as different as night and day*[35] (Ammo hozir biz tun bilan kundek farqlanamiz). Sifatning qiyosiy darajasi asosidagi birlik bittagina: *more dead than alive* (o‘ta holsiz). O‘zbek tilida

[33] Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц (на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках). – Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. – С. 30.

[34] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – С. 144.

[35] Milevsky A. Sibling Relationships in Childhood and Adolescence: Predictors and Outcomes. – New York: Columbia University Press, 2011. – P. 110.

qiyosiy ma’no *-dek, -day, -cha* qo‘shimchalari yordamida ifodalanadi: *farqi yer bilan osmoncha; oy bilan quyoshdek* – nihoyatda go‘zal, munosib juftlik. Qiyosiy birliklar har ikki tilda 4 tadan aniqlandi.

Qiyosiy bo‘lmagan sifat tarkibli FBlar ikki tilda ham ustunlik qiladi (ingliz tilida 19 tadan 15 tasi): sweet and sour – nordon-shirin; open and shut – oddiy, ravshan; black or white – keskin, oraliqsiz; o‘zbek tilida usti yaltiroq, ichi qaltiroq – ikkiyuzlamachi, pismiq; issiq-sovuqni ko‘rgan; achchiq-chuchukni totgan – hayotda ko‘p narsani ko‘rgan. Ular asosan biriktiruv (open and shut) va ayiruv (black or white) munosabatidagi bitishuvli munosabatni ifodalaydi; ingliz tilida tobe bog‘lanishli sifat tarkibli antonim FBlar aniqlanmagan. Pozitsion variantlar ham uchraydi: *different as night and day* – different as day and night. Sifat tarkibli FBlar inson fazilati, fe’l-atvori va ijtimoiy munosabatlarini baholashda faol bo‘lib, ko‘proq kontrar va komplementar antonimlarga tayanadi.

Uchinchi fasl *“Ravish-antonimlar ishtirokidagi FBlar”* deb nomlanadi. Ravish tarkibli FBlar harakatning belgisi, usuli, o‘rni yoki vaqtini ifodalaydi; ular ingliz tilida 59 ta, o‘zbek tilida 16 ta. Ingliz tilidagi boshqaruvli birliklar *in, from, between, by, through, till, with* predloglari bilan boshlanadi: *in black and white* – yozma, rasmiy shaklda; *between life and death* – hayot va o‘lim orasida; *by fair means or foul* – qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham; *from dawn to dusk* – tongdan shomgacha. O‘zbek tilida predlog kategoriyasi mavjud bo‘lmagani uchun boshqaruv munosabati kelishik qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: tundan tonggacha, u chetidan bu chetigacha. Ingliz tilidagi yagona qiyosiy ravish FB – as night follows day (kundan keyin tun kelgani kabi muqarrar) gapda ko‘pincha ajratilgan hol vazifasida keladi: *As night follows day, so day follows night, whether we like it or not*[36] (Kundan keyin tun kelgani kabi, xohlaymizmi-yo‘qmi, tundan keyin ham kun keladi).

Bitishuvli ravish FBlar teng (high and low, right and left, off and on), ayiruv (now or never – hozir yoki hech qachon) va inkor (neither here nor there – ahamiyatsiz, gapga aloqasi yo‘q) bog‘lovchilari yordamida hosil bo‘ladi; ingliz tilida uch komponentli (here, there and everywhere; left, right and centre) va ko‘p komponentli (till all hours of the day and night) birliklar ham mavjud. O‘zbek tilida bunday bog‘lanish *va, -u, -yu, ham, goh* vositalari orqali yuzaga chiqadi: *shu kecha-yu kunduzda, gohida u yerda, gohida bu yerda*. Ikki til o‘rtasidagi muhim tipologik farq ravish FBlarning gapdagi o‘rnida namoyon bo‘ladi: ingliz tilida ular odatda fe’ldan keyin (postpozitsiyada), o‘zbek tilida esa fe’ldan oldin (prepozitsiyada) keladi: *Olti oy yoz, olti oy qish, kechani kecha demay, kunduzni kunduz demay mehnat qildi* (G‘.G‘ulom. Eri bilan bahs boylashgan xotin). Ingliz tilida pozitsion variantlar ham kuzatiladi: back and forth – forth and back.

To‘rtinchi fasl *“Fe’l-antonimlar ishtirokidagi FBlar”* deb nomlanadi. Fe’l tarkibli FBlar ikki tilda ham son jihatidan ustunlik qiladi: ingliz tilidagi 257 ta birlikning 95 tasi (36,96%), o‘zbek tilidagi 134 ta birlikning 72 tasi (54%) fe’l asosli tuzilmalardir. Ingliz tilidagi qiyosiy fe’l FBlar *like* vositasida shakllanadi: *to fight like cat and dog* – it-mushukdek urishmoq; *go up like a rocket and come*

[36] Deurzen E. van. Psychotherapy and the Quest for Happiness. – London: SAGE, 2008. – P. 165.

down like a stick – tez ko‘tarilib, tez qulamoq. O‘zbek tilida qiyosiy ma’no *-day, -dek* qo‘shimchalari va *kabi* ko‘makchisi orqali ifodalanadi: *pashshaday narsani fil qilib ko‘rsatmoq; olov bilan suv kabi bo‘lmoq.* Nokomparativ fe’l asosli FBlar obyekt yoki obyekt-holat munosabatini ifodalaydi: *move heaven and earth* – bor kuchini ishga solmoq; *set the wolf to keep the sheep* – bo‘rini qo‘yga cho‘pon qilmoq; *make a mountain out of a molehill* – arzimas narsani bo‘rttirmoq. Ingliz tilida bu birliklar tarkibidagi otlar artikl bilan yoki artiklsiz qo‘llanib, birlikning semantik-pragmatik mazmunini aniqlashtiradi, inkor shaklidagi birliklar ham uchraydi: not to know if one is coming or going – nima qilishini bilmay qolmoq; not to let one’s left hand know what one’s right hand does – ishni sir tutmoq. O‘zbek tilida fe’l komponent doimo birlik oxirida keladi: *Modomiki katta boshlaringizni kichik qilib... maslahatga kelibsizlar, men xolis gapni aytishim kerak* (I.Rahim. Ixlos).

Fe’l tarkibli FBlarning bir qismi holat munosabatini ifodalaydi: *ingliz tilida come high, come low* – nima bo‘lsa ham, har qanday holatda; *can’t get there from here* – maqsadga mavjud vositalar bilan erishib bo‘lmaydi; o‘zbek tilida *oldi-ortiga qaramay qochmoq* (shoshilinch, o‘ylamay qochmoq). Ingliz tilida bunday birliklarda *in, on, out of* kabi predloglar holatni aniqlashtiruvchi vosita bo‘lsa (to be a square peg in a round hole – o‘z o‘rnini topmagan bo‘lmoq; have an old head on young shoulders – yoshiga nisbatan aqlli, tajribali bo‘lmoq), o‘zbek tilida bu vazifani kelishik qo‘shimchalari bajaradi. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillaridagi *make a mountain out of a molehill* va *pashshadan fil yasamoq* birliklari strukturasi farqli bo‘lsa-da, “kichiklik-kattalik” obrazlari qarama-qarshiligiga asoslangan funksional analoglar hisoblanadi.

Ingliz tilida ayiruv bog‘lovchisi *or* bilan hosil bo‘lgan, keskin tanlov yoki muqarrar oqibatni ifodalovchi fe’l FBlar alohida guruhni tashkil etadi: *make or break* – yo yutuq, yo barbodlik; *sink or swim* – yo cho‘kasan, yo suzasan; stand or fall; kill or cure. Teng bog‘lanishli juft fe’llar (wax and wane – goh ortib, goh kamayib bormoq) hamda teng va tobe bog‘lanish xususiyatlari mushtarak birliklar ham uchraydi: *to run with the hare and hunt with the hounds* – ikki tomonga ham xizmat qilmoq, ikki kemaning boshini tutmoq: *you are one of the happy sheep that go out for wool, and come home shorn*[37] (Siz jun olishga borib, o‘zi qirqilib qaytadigan “baxtli” qo‘ylardan birisiz). O‘zbek tilida bunday birliklar kam bo‘lib, *-u* yuklamasi orqali bog‘lanadi: *Olinglar-u, oldirmanglar, omin!* (M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha). Ingliz tilidagi fe’l FBlarda leksik (prove that black is white – swear that black is white; to rain cats and dogs – to pour cats and dogs) va kvantitativ (to struggle to keep body and soul together – to keep body and soul together) variantlar uchraydi.

Beshinchi fasl *“Birikma va modal antonimlar ishtirokidagi FBlar”* deb nomlanadi. Bunday birliklar ikki tilda ham juda kam uchraydi. Ingliz tilida undov FB sifatida faqat *Dog my cats!* (hayrat, ajablanish ifodasi) qayd etilgan. O‘zbek tilida undov ifodali antonim FBlar aniqlanmagan, biroq M.Vafoyeva tasnifidagi

[37] Scott W. Waverley Novels. – Edinburgh: Robert Cadell, 1832. – P. 305.

subyektiv-modal birliklar[38] orasida antonim komponentlilari mavjud: so‘zi bor, amali yo‘q; na issiqqa ko‘nmoq, na sovuqqa; boy bo‘lib boltasi yo‘q, gadoy bo‘lib xaltasi yo‘q: *“Boy bo‘lib boltang yo‘q, gadoy bo‘lib xaltang yo‘q”, – deb zaharxanda qildi* (A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari). Bu birliklar so‘zlovchining voqelikka shaxsiy munosabati va bahosini ifodalaydi.

Struktur-grammatik tahlil natijalariga ko‘ra, ikki tilda ham fe’l tarkibli FBlar birinchi (ingliz tilida 95 ta, o‘zbek tilida 72 ta), ot tarkibli FBlar ikkinchi (81 ta va 17 ta), ravish tarkibli FBlar uchinchi (59 ta va 16 ta), sifat tarkibli FBlar to‘rtinchi (19 ta va 11 ta) o‘rinni egallaydi, birikma va modal tarkibli birliklar esa eng kam uchraydi. Komponentlar orasidagi grammatik munosabat ingliz tilida predloglar, bog‘lovchilar (and, or, as, like), artikllar va qat’iy so‘z tartibi, o‘zbek tilida esa kelishik va egalik qo‘shimchalari, *-dek, -day* affikslari, -u, -yu yuklamalari va ko‘makchilar orqali ifodalanadi. Bu farqlar ingliz tilining analitik va o‘zbek tilining agglutinativ tabiati bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek va ingliz tillarida antonim tarkibli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobi to‘rt fasldan iborat. Dastlabki faslda frazeologik ma’noning signifikativ, denotativ va konnotativ jihatlari haqidagi A.V.Kunin qarashlariga[39] tayangan holda antonim tarkibli FBlar semantik tamoyil asosida to‘rt frazeosemantik guruhga ajratildi: 1) shaxsni tavsiflovchi; 2) jonli va jonsiz tabiat hodisalarini bildiruvchi; 3) aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi; 4) qo‘shimcha xususiyatni bildiruvchi FBlar.

R.R.Zamaletdinovning ta’kidlashicha, frazeologizmlarning semantik tizimida nafaqat voqelikni bo‘laklash va kategoriyalarga ajratish, balki uni qayta talqin etish, yangi ma’lumotni avvaldan shakllangan sotsiomadaniy bilimlar tizimiga integratsiyalash ham amalga oshadi, natijada, etnomadaniy jamoaning hodisaga nisbatan emotsional-baholovchi munosabati shakllanadi[40]. A.V.Kunin konnotatsiya tarkibiga emotsional, ekspressiv, baholovchi va obrazli unsurlarni kiritadi va aynan ularning turli nisbatda namoyon bo‘lishi FBlarni kuchli ifodaviy vositaga aylantirishini qayd etadi[41]. Antonim tarkibli FBlarda bu unsurlar komponentlarning qarama-qarshiligi tufayli yanada bo‘rtib ko‘rinadi.

Bobning birinchi fasli *“Shaxsni tavsiflovchi antonim tarkibli FBlar”* deb nomlanadi. Ushbu guruh ikki tilda ham son jihatidan ustunlik qiladi: ingliz tilida 257 ta birlikning 91 tasi (35,41%), o‘zbek tilida esa 134 ta birlikning 55 tasi (41%) insonning tashqi ko‘rinishi, fe’l-atvori, jismoniy va emotsional holati, ijtimoiy mansubligi, qarindoshlik munosabatlari hamda faoliyatini ifodalaydi. Bu antonim tarkibli frazeologiyaning antropotsentrik tabiatini tasdiqlaydi. Ular quyidagi asosda tasniflandi:

---

[38] Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 34.

[39] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – С. 91-93.

[40] Замалетдинов Р.Р. Национально-языковая картина татарского мира: автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.02. – Казань, 2004. – С. 19.

[41] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – С. 93.

1. Tashqi ko‘rinishni ifodalovchi birliklar ingliz tilida kam (*beauty and the beast* – go‘zal va maxluq), o‘zbek tilida esa go‘zallik ko‘pincha oy va quyosh timsollari orqali ifodalanadi: oy desa og‘zi, kun desa ko‘zi bor; biri quyosh, biri oy – nihoyatda go‘zal. A.Smaylovning qayd etishicha, qadimda ajdodlarimiz oy va quyoshni yuksak qadrlagan va ularni madaniy-iqtisodiy hayot bilan chambarchas bog‘lagan[42].

2. Fe’l-atvorni ifodalovchi kichik guruhda salbiy konnotatsiyali birliklar ustunlik qiladi. Ingliz tilida ikkiyuzlamachilik, maqtanchoqlik, quruq va’dabozlik qoralanadi: *a wolf in sheep’s clothing* – qo‘y terisini yopingan bo‘ri; *all hat and no cattle* (“shlyapa bor-u, mol yo‘q”) – gapi katta, ishi yo‘q odam; *all fur coat and no knickers* – ko‘rinishi yaltiroq, ichi bo‘sh. O‘zbek tilida esa ularga mazmunan yaqin *usti yaltiroq, ichi qaltiroq; so‘zi bor, amali yo‘q; achib suyilmagan, qarib quyilmagan* kabi birliklar mavjud. Ijobiy fazilatlar ingliz tilida halollik va ishonchlilik (all wool and no shoddy – sof, halol odam), o‘zbek tilida esa hayot tajribasi, donolik, ehtiyotkorlik bilan bog‘lanadi: issiq-sovuqni ko‘rgan, achchiq-chuchukni totgan, oldi-ortiga qaragan.

3. Jismoniy va emotsional holat ikki tilda ham *tirik-o‘lik* juftligi orqali ifodalanadi: more dead than alive, between life and death, a walking corpse; bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda; tirik murda.

4. Ijtimoiy mansublikni ifodalovchi ingliz FBlarida *katta-kichik* ziddiyati yetakchi: *a big fish in a small pond, a big frog in a little pond* – kichik doiradagi “katta odam”; *haves and have-nots* – boylar va kambag‘allar.

5. Qarindoshlik munosabatlari guruhi oz tarkibli: *bone of one’s bone and flesh of one’s flesh* (Injildan kelib chiqqan) – qondosh, eng yaqin kishi; kattani aka, kichikni uka demoq.

6. Inson harakatini ifodalovchi birliklarda ingliz tilida qat’iyat va intilish (move heaven and earth), munosib javob qaytarish (to give someone a Roland for an Oliver – fransuz eposidagi teng kuchli qahramonlar nomi kontekstual antonim vazifasida) kabi ma’nolar, o‘zbek tilida esa qanoat, ahillik va saxovat qadriyatlari aks etadi: bir mayizni qirq kishi bo‘lib yemoq – ahil, inoq bo‘lmoq. Umuman olganda, ingliz lingvomadaniyatida halollik va ishonchlilik, o‘zbek lingvomadaniyatida esa mehribonlik, qanoat, kamtarlik, hushyorlik va mas’uliyat yuksak qadrlanishi aniqlangan.

Inson harakatini ifodalovchi birliklarning konnotativ tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikki tilda ham salbiy baholi birliklar ijobiylariga nisbatan ko‘p. Ular azob-uqubat, xavotir, befarqlik, tushkunlik, g‘azab, dangasalik, ikkiyuzlamachilik, yolg‘on, isrofgarchilik, omadsizlik, maqtanchoqlik va mubolag‘a kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ingliz tilida bularga qo‘shimcha ravishda beqarorlik, o‘zgaruvchanlik, sarosima va e’tiborsizlik (to blow hot and cold; not to know if one is coming or going); o‘zbek tilida esa shikoyat, uyat, qasos, xushomad, manfaatparastlik va o‘zboshimchalik ma’nolari faol. Intellektual, nutqiy va jismoniy faoliyatni ifodalovchi birliklar ikki tilda ham anglash, bilish, ishontirish, yanglishish,

[42] Смайлов А. Лингвокультурная специфика устойчивых выражений, формирующих концепт “женщина”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.02. – Алматы, 2008. – С. 14.

bo‘ysunish, boylik va qashshoqlik, muloqot kabi semantik maydonlarga mansubdir.

Bobning ikkinchi fasli *“Jonli va jonsiz tabiat hodisalarini bildiruvchi antonim tarkibli FBlar”* deb nomlanadi. Ushbu faslda dastlab tillararo munosabatlar masalasi E.M.Soloduxo[43], Y.F.Arsentyeva[44] va G.M.Polkina[45] tasniflari asosida ko‘rib chiqildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antonim tarkibli FBlar orasida 10 ta to‘liq ekvivalent aniqlandi, ularda obraz ham, ma’no ham deyarli bir xil: *a living death* – tirik murda; *separate the wheat from the chaff* – saragini sarakka, puchagini puchakka ajratmoq; *the sweet and the bitter of life* – dunyoning achchiq-chuchugi. Analoglarda ma’no bir xil bo‘lsa-da, obraz farqlanadi: *all fur coat and no knickers, all hat and no cattle* – usti yaltiroq, ichi qaltiroq; day and night – kechani kecha demay, kunduzni kunduz demay.

Tabiat hodisalarini ifodalovchi antonim tarkibli FBlar ikki tilda ham kam sonli. Ingliz tilida *old moon in new moon’s arms* (“eski oy yangi oy bag‘rida”) – ob-havo o‘zgarishi belgisi; *to rain cats and dogs* – shiddatli yomg‘ir yog‘moq kabi birliklar qayd etilgan. I.V.Batunova keyingi birlikning kelib chiqishini XVI asrda Angliyadagi nam va sovuq ob-havo sharoitida issiqlik izlab tomlarga chiqqan mushuk va itlarning yomg‘irda tomdan sirg‘anib tushishi voqeligi bilan bog‘laydi[46]. O‘zbek tilidan bunga *qordan qutulib, yomg‘irga tutilmoq* (yomondan battariga uchramoq) iborasini misol qilish mumkin (*Amerika quv, zolim, u bizning jilovimizni qo‘liga oldi, qordan qutulib yomg‘irga tutilyapmiz* (Oybek. Nur qidirib)); *to‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq barobar yonadi* – umumiy kulfat hech kimni chetlab o‘tmaydi; *osmon yiroq, yer qattiq* – chorasizlik. Tahlillar asnosida hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklar (to fight like cat and dog, the cat and mouse game; *pashshadan fil yasamoq, it-mushuk bo‘lmoq)* ma’no jihatidan insonga taalluqli bo‘lgani uchun shaxsni tavsiflovchi guruhga kiritildi.

Uchinchi fasl *“Aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi antonim tarkibli FBlar”* deb nomlanadi. Abstrakt hodisalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sezgi orqali idrok etilmaydigan, faqat til belgilari vositasida anglanadigan tushunchalar bo‘lsa[47], moddiy hodisalar sezgi a’zolari orqali bevosita idrok qilinadi. “Dalil, ish” ma’nosida ingliz tilida *open and shut, an open and shut case* – oddiy, yechimi ravshan ish; “tafsilot, mohiyat” ma’nosida *ins and outs, the long and the short of it, the top and bottom of it*; “farq” ma’nosida as different as night and day va farqi yer bilan osmoncha; “hal qiluvchi muammo” ma’nosida a matter of life and death va

[43] Солодухо Э.М. Проблемы интернационализации фразеологии (на материале языков славянской, германской и романской групп). – Казань: Изд-во Казанского университета, 1982. – С. 24.

[44] Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц (на материале фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека в английском и русском языках). – Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. – С. 97.

[45] Полькина Г.М. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с антонимичными компонентами в английском и татарском языках: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Казань, 2002. – С. 139.

[46] Батунова И.В., Лобынева Е.И., Николаева А.Ю. Этимология идиом: возникновение и употребление в современном английском языке // Международный научно-исследовательский журнал. – 2020. – № 12-3. – С. 111-113.

[47] Иссерс О.С. Теоретическая и прикладная лингвистика: курс лекций. – Омск: Изд-во Омского государственного университета, 2017. – С. 97.

hayot-mamot masalasi; o‘zbek tilida esa (*uzun) gapning qisqasi* kabi iboralar qo‘llaniladi.

Zidlikni bildiruvchi FBlar ingliz tilida 19 ta, o‘zbek tilida 10 ta: ups and downs, ebb and flow, wax and wane, likes and dislikes, the pros and cons, all or nothing, feast or famine; oq va qora, yer-u osmon, past-u baland, kecha-yu kunduz va hkz. Ingliz tilida antonim komponentlar yordamida murakkab munosabat (a love-hate relationship), murosa (give and take), qoida (dos and don’ts), harakat (the comings and goings), tafovut (light and shade) kabi mavhum tushunchalar ham ifodalanadi. Moddiy hodisalar ingliz tilida asosan taom va ichimlik (sweet and sour; fire water – kuchli spirtli ichimlik; Tom and Jerry – P.Igan asari qahramonlari nomi bilan atalgan issiq punsh), pul (an arm and a leg – juda qimmat; cash or credit) hamda kema qismlari (fore and aft) bilan bog‘liq; o‘zbek tilida bunday birliklar kam uchraydi.

Aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi birliklarda *hayot-o‘lim, ochiq-yopiq, kun-tun, ko‘p-oz, bor-yo‘q* kabi antonim juftliklar voqelikdagi qarama-qarshi holatlarni badiiy ifodalash, ular orasidagi tafovutni kuchaytirish yoki mubolag‘ali tasvirlash vazifasini bajaradi. Masalan, *a matter of life and death va hayot-mamot masalasi* birliklarida komplementar antonimlar muammoning hal qiluvchi, keskin xarakterini ta’kidlasa, *ups and downs* va *past-u baland* birliklarida gradatsion antonimlar hayotning o‘zgaruvchanligini umumlashtiradi. Ingliz tilida bu guruhdagi birliklarning son va semantik jihatdan boyligi mavhum tushunchalarni ixcham juft qoliplar orqali ifodalash an’anasi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday ma’nolar ko‘pincha juft so‘zlar va erkin birikmalar orqali beriladi.

To‘rtinchi fasl *“Qo‘shimcha xususiyatni bildiruvchi antonim tarkibli FBlar”* deb nomlanadi. Bu guruh ingliz tilida 82 ta, o‘zbek tilida 43 ta birlikni qamrab oladi va harakatning vaqti, uslubi, o‘rni, miqdori va darajasini ifodalaydi. *Vaqtni* bildiruvchi birliklar ingliz tilida 21 ta, o‘zbek tilida 10 ta: morning, noon and night; now or never; day in and day out; year in, year out; from cradle to grave; off and on; tundan tonggacha; erta yo kech; yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uzilgan payt – bahorda qor erib, chorva hali to‘yib o‘tlay olmaydigan og‘ir davr. *Harakat uslubini* bildiruvchi birliklar ingliz tilida 18 ta, o‘zbek tilida 13 ta: inside out, through thick and thin, by fair means or foul, as night follows day; ko‘z ochib-yumguncha – bir zumda. *Makonni* bildiruvchi birliklar ingliz tilida 14 ta, o‘zbek tilida 9 ta: far and near, here and there, to and fro, in the right church but in the wrong pew – umuman to‘g‘ri, ammo tafsilotda xato; birda u yerda, birda bu yerda; u chetidan bu chetigacha. *O‘lchov va darajani* bildiruvchi birliklar ingliz tilida 11 ta, o‘zbek tilida 15 ta: body and soul, from top to toe, from top to bottom, left, right and centre; yer bilan osmoncha, boshdan-oyoq. Maqsad ma’nosidagi birliklar faqat ingliz tilida qayd etilgan: for better or for worse – yaxshi kunda ham, yomon kunda ham; for weal and woe – baxtda ham, kulfatda ham.

Demak, qo‘shimcha xususiyatni bildiruvchi FBlar ichida ingliz tilida vaqt, o‘zbek tilida esa o‘lchov va daraja ma’nosidagi birliklar yetakchilik qiladi. Jonli va jonsiz tabiat hodisalarini hamda aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi birliklar esa har ikki tilda frazeosemantik maydonning periferiyasini tashkil etadi.

Bunday guruhlardagi miqdoriy va mazmuniy tafovutlar xalqlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlaridagi farqlar bilan izohlanadi.

XULOSA

1. Antonimiya ingliz va o‘zbek tillariga xos umumiy til hodisasi bo‘lib, har ikki til frazeologiyasida alohida mikrotizimni tashkil etadi. Tadqiqotda antonimiyaga nisbatan keng yondashuv asos qilib olinib, frazeologik birlik tarkibidagi gradatsion, komplementar, vektorli va konversiv zidliklar antonimiya doirasida o‘rganildi. Antonim tarkibli FBlar – bir birlik doirasida semantik jihatdan zid leksik komponentlarni o‘z ichiga olgan, barqaror va yaxlit ma’noli frazeologik birliklardir. Ular ikki FBning semantik qarama-qarshiligiga asoslangan frazeologik antonimlardan farqlandi.

2. O‘zbek tilidagi frazeologik antonimlarni aniqlashning to‘rt mezoni – semantik qarama-qarshilik, kontekstda qarshilantirilish, struktur parallelizm va milliy korpusdagi qo‘llanish chastotasi asoslandi. Frazeologik antonimiyaning asosiy mezoni alohida komponentlar emas, balki birlikning yaxlit semantikasidagi qarama-qarshilik ekani aniqlandi.

3. Tadqiqot materialini ingliz tilida 257 ta, o‘zbek tilida 134 ta antonim tarkibli FB tashkil etdi. Har ikki tilda kontrar (ingliz tilida 102 ta – 39,69%, o‘zbek tilida 46 ta – 34,33%) va komplementar (73 ta – 28,40%; 42 ta – 31,34%) oppozitsiyalar ustunlik qiladi, vektorli oppozitsiyalar uchinchi o‘rinda turadi, konversiv oppozitsiyalar esa eng kam uchraydi (12 ta va 14 ta). Kontekstual antonimlar ingliz tilida 107 ta, o‘zbek tilida 73 ta FB tarkibida kuzatildi.

4. Antonim komponentlarning asosiy stilistik vazifasi antiteza hosil qilishdir. Antonim komponentli oksyumoronlar cheklangan bo‘lib, ingliz tilida 6 ta, o‘zbek tilida 1 ta (tirik murda) holatda qayd etildi. Tadqiqotda umumiy semantik paradoksga asoslangan oksyumoronlar bevosita antonim komponentli oksyumoronlardan farqlandi.

5. Struktur-grammatik jihatdan antonim tarkibli FBlar ot, sifat, ravish, fe’l hamda birikma va modal birliklarga ajratildi. Ikki tilda ham fe’l tarkibli birliklar ustunlik qiladi (ingliz tilida 95 ta – 36,96%, o‘zbek tilida 72 ta – 54%), so‘ng ot (81 ta; 17 ta), ravish (59 ta; 16 ta) va sifat (19 ta; 11 ta) tarkibli FBlar keladi, birikma va modal birliklar esa eng kam uchraydi. Ingliz tilida undov FB yagona holatda (Dog my cats!) qayd etilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida undov FBlar uchramaydi, biroq subyektiv-modal birliklar mavjud.

6. Komponentlar orasidagi grammatik munosabat ingliz tilida predloglar, *and, or, as, like* bog‘lovchilari, artikllar va so‘z tartibi, o‘zbek tilida esa kelishik va egalik qo‘shimchalari, *-dek, -day, -cha* affikslari, *-u, -yu* yuklamalari va ko‘makchilar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida ravish FBlar fe’ldan keyin, o‘zbek tilida esa fe’ldan oldin joylashadi. Ingliz tilidagi FBlarda pozitsion, leksik, struktur-grammatik va kvantitativ variantlar keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi antonim tarkibli FBlar shaklan barqarorligi bilan ajralib turadi. Bu tafovutlar ingliz tilining analitik va o‘zbek tilining agglutinativ tabiatidan kelib chiqadi.

7. Semantik jihatdan antonim tarkibli FBlar shaxsni tavsiflovchi, jonli va jonsiz tabiat hodisalarini bildiruvchi, aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi

hamda qo‘shimcha xususiyatni (vaqt, uslub, makon, o‘lchov va daraja, maqsad) bildiruvchi guruhlarga ajratildi. Har ikki tilda shaxsni tavsiflovchi birliklar ustunlik qiladi (ingliz tilida 91 ta – 35,41%; o‘zbek tilida 55 ta – 41%), bu esa ushbu birliklarning antropotsentrik tabiatini tasdiqlaydi. Tabiat hodisalari hamda aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi birliklar frazeosemantik maydonning periferik qismini tashkil etadi.

8. Qo‘shimcha xususiyatni bildiruvchi FBlar ingliz tilida 82 ta, o‘zbek tilida 43 ta bo‘lib, ular ichida ingliz tilida vaqt (21 ta), o‘zbek tilida o‘lchov va daraja (15 ta) ma’nosidagi birliklar yetakchilik qiladi. Maqsad ma’nosidagi antonim tarkibli FBlar (for better or for worse, for weal and woe) faqat ingliz tilida aniqlandi.

9. Ikki tildagi antonim tarkibli FBlarda mehribonlik, donolik, qat’iyat, matonat va sabr-toqat ijobiy, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, yovuzlik, loqaydlik va dangasalik salbiy baholanadi. Ingliz tilida halollik va ishonchlilik yuqori darajada qadrlansa, o‘zbek tilida o‘zaro yordam, qanoat, kamtarlik, mehr va e’tibor muhim axloqiy mezon sifatida ajralib turadi; ingliz lingvomadaniyatida maqtanchoqlik va beqarorlik, o‘zbek lingvomadaniyatida esa kibr, qo‘pollik, qaysarlik va xudbinlik qoralanadi.

10. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antonim tarkibli FBlar orasida 10 ta to‘liq ekvivalent, shuningdek, qisman ekvivalentlar va obrazi farqli funksional analoglar aniqlandi. Bunday birliklarning tillararo munosabatini belgilash milliy-madaniy mazmunni to‘g‘ri yetkazish, ikki tilli frazeologik lug‘atlar tuzish va tarjima aniqligini ta’minlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy matnni ingliz tilidan o‘zbek tiliga vositachi til orqali tarjima qilish esa bunday birliklarning semantik aniqligini saqlashda muayyan noqisliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 AT FERGANA STATE UNIVERSITY

FERGANA STATE UNIVERSITY

MAMATKULOVA KHURSHIDABONU ANVARJON KIZI

STRUCTURAL AND SEMANTIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ANTONYMOUS COMPONENTS IN UZBEK AND ENGLISH

10.00.13 – Comparative and contrastive linguistics

DISSERTATION
ABSTRACT of the doctor of philosophy (PhD)
on PHILOLOGICAL sciences

Fergana – 2026

The theme of the doctor of philosophy (PhD) dissertation has been registered by the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under No. B2026.3.PhD/Fil7797.

The dissertation was carried out at Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (résumé)) on the website of Fergana State University (www.fdu.uz) and on the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Umarova Nargizakhon Rustamovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Sulaymonova Nilufar Jabbarovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Teshaboyeva Dilfuza Muminovna Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Namangan Institute of Foreign Languages**

The defense of the dissertation will take place on "_____" _____ 2026 at _____ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 on awarding scientific degrees at Fergana State University. (Address: 100151, Fergana city, B.Marginoni street, 105. Tel.: (873) 244-66-02; (873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@umail.uz)

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of Fergana State University (registered under No. _____). (Address: 100151, Fergana city, B.Marginoni street, 105. Tel.: (873) 244-66-02; (873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@umail.uz)

The abstract of the dissertation was distributed on "___ __ __" _____ 2026.

(Registry protocol No. _____ dated "___ ___ __" _____ 2026)

M.Y.Mamajonov
Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

A.I.Saminov
Scientific Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

M.T.Abdupattoyev
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. World linguistics has accumulated considerable scientific and practical experience in studying phraseological units on the basis of structural-semantic and linguocultural approaches, in identifying the role of the antonymic relations within them in the formation of figurative meaning, and in the comparative study of their universal and national-cultural features in languages of different systems. However, the insufficient systematization of the criteria for distinguishing lexical and contextual oppositions in phraseological units with antonymous components, for consistently classifying their structural-grammatical and phraseosemantic features and for establishing interlingual functional equivalence creates certain methodological difficulties in comparative research. Therefore, improving bilingual phraseological dictionaries, ensuring semantic accuracy in translation and developing phraseological competence in foreign language teaching on the basis of systematizing the structural-semantic features of phraseological units with antonymous components, determining their interlingual correspondences and interpreting their national-cultural meanings acquire particular practical importance.

In world linguistics, large-scale research is being carried out to identify the structural-semantic features of phraseological units with antonymous components, the semantic classification of oppositions, the formation of figurative meaning, linguocultural specificity, as well as universal and differential features in languages of different systems. Within modern linguistic trends, interpreting these units not merely as an expression of lexical opposition, but as a complex semantic phenomenon formed through the harmony of the mutual contrast of their constituents, their grammatical structure and integral phraseological meaning, is one of the important theoretical issues. Furthermore, determining the role of lexical and contextual antonymy in the formation of phraseological meaning, establishing the relationship between structural-grammatical models and phraseosemantic groups, and explaining the regularities of interlingual functional equivalence on the basis of comparative analysis remain among the theoretical problems of modern phraseology and contrastive linguistics.

In recent years, revealing the potential of the national language through its comparison with other languages and including the Uzbek language among the developed languages of the world has become an issue at the level of state policy. Therefore, research in this field will undoubtedly yield practical results in fulfilling "...the task of developing scientific research and innovative activity, and comprehensively supporting creative ideas and developments"[1]. A comparative approach to the study of phraseological units makes it possible to include various linguistic pictures of the world, in particular their reflection in national thinking, in the peripheral layers of knowledge blocks, which requires an in-depth study of phraseology as a separate scientific field.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь // Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь. – № 258.

This dissertation serves, to a certain extent, the implementation of the tasks set out in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No. PF-5850 of October 21, 2019 “On Measures to Radically Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language”, No. PF-6084 of October 20, 2020 “On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and the Improvement of the Language Policy in Our Country”, No. PF-60 of January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, the Resolution No. PQ-308 of October 20, 2025 “On Additional Measures for the Further Development of the State Language”, as well as in other regulatory legal documents related to this activity.

Compliance of the research to the priority areas of the development of science and technology in the Republic. The research was carried out in accordance with priority area I of the development of science and technology in the Republic: “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state”.

The scope of study of the problem. In world linguistics, S.Jones focused on the general features and functional specificity of phraseological antonyms[2], while Ch.Bally, A.Smirnitsky and N.Amosova studied phraseology as a separate branch of linguistics and analysed phraseological units of the English language[3]. Ye.Polivanov and V.Vinogradov[4] grouped Russian phraseological units semantically, whereas scholars such as V.Teliya, A.Cowie and M.Murphy[5] collected phraseological units and studied their semantic-pragmatic and linguocultural aspects.

M.Beshaj and N.Shansky analysed phraseological units from the semantic point of view, while A.Dabrowska focused on their syntactic aspect. D.Cruse, F.Palmer and B.Altenberg studied the use of phraseological units in speech situations, and Ye.Barilova investigated phraseological units with food-related components on the material of French and Russian. O.Likhacheva carried out a structural-semantic analysis of antonyms in English and Russian, and N.Tukeshova conducted a comparative study of phraseological units with antonymous components in English and Kazakh[6].

---

[2] Jones S. Antonymy: A Corpus-Based Perspective. – London: Taylor & Francis, 2004.

[3] Балли Ш. Французская стилистика / пер. с франц. К.А. Долинина. – М.: Эдиториал УРСС, 2001; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1998. – 260 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 227 с.

[4] Поливанов Е.Д. Труды по восточному и общему языкознанию. – М.: Наука, 1991. – 623 с.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140-161.

[5] Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 258 p.; Murphy M.L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy, and Other Paradigms. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2003.

[6] Beshaj M.L. Phraseological Units used in the Functional Styles in English and Albanian Language // Mediterranean Journal of Social Sciences. – Rome: MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome, 2013. – Vol. 4, № 2. – P. 453-456; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – 3-е изд. – М.: Высшая школа,

